

UDK. 633.854.78:631.527

**KUNJUT(SESAMUM INDICUM.L) NAV VA NAMUNALARINING DON
HOSILDORLIK KO'RSATKICHI YUQORI BO'LGAN BIRLMACHI MANBLARNI
TANLASH****Norov Ilxom Chori o'g'li***tadqiqotchi**q.x.f.d., professor Amanova Maxfurat Eshmurodovna**Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti**Toshkent davlat agrar universiteti*

Annatatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqot ishida kunjut (*Sesamum indicum.L*) ning 100 dan ortiq 27 ta davlatdan intraduksiya qilingan nav va namunalarining don hosildorligi andoza nav bilan taqqoslangan holda o'rganildi. Ilmiy tadqiqotda tanlab olingan namunalarning don hosildorligi yuqori bo'lgan birlamchi manbalarni tanlash ishlari amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: kunjut, nav, namunalar, intraduksiya, mahsuldorlik, hosildorlik, tanlash, kolleksiya ko'chatzori.

Аннотация: В данном научном исследовании изучалась урожайность более 100 интродуцированных сортов и образцов кунжута (*Sesamum indicum.L*) из 27 стран в сравнении со стандартным сортом. В ходе исследования были отобраны первичные источники с высокой урожайностью зерна среди выбранных образцов.

Ключевые слова: кунжут, сорт, образцы, внедрение, продуктивность, урожайность, отбор, питомник для сбора образцов.

Annotation: This scientific study compared the yields of over 100 introduced sesame (*Sesamum indicum*) varieties and accessions from 27 countries with a standard variety. Among the accessions, primary sources with high grain yields were selected.

Key words: sesame, variety, samples, introduction, productivity, yield, selection, nursery for collecting samples.

Hozirgi kunda kunjut yetishtirishda quyidagi muamolarga duch kelinmoqda hosildorlikgi yuqori, mahsuldor va mahalliy sharoitga moslashtirilgan navlarning yetishmasligi, qo'zoqchalarning parchalanishiga moyilligi va urug'larning past saqlanishi, biotik va abiotik stresslar, zamonaviy ishlab chiqarish va yig'im-terimdan oldingi va keyingi texnologiyalarning yetishmasligi tufayli don hosildorlik ko'rsatkichi jiddiy cheklanagan.

Mahla N. U., Jagtap P. K., Patel H. R. larning olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra kunjut seleksiyasi va urug'chilikda don hosildorlik ko'rsatkichi vegetatsiya

davriga. qo'zoqcha uzunligi, qo'zoqcha kengligi, asosiy shoxdagi qo'zoqchalar, 1000 dona don vazni va mahsuldorlik bilan ijobiy bog'liqligi aniqlangan [1].

Marashi S. H. va boshqa olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlarga ko'ra kunjut don hosildorligini oshirishda eng samarali belgilari o'simlikdagi qo'zoqchalar soni va 1000 dona don vazni ekanligini aniqlangan. Yuqori hosil olish kunjutda seleksiyani muhim maqsadlaridan biri bo'lgani uchun; bu belgilar asosiy tanlav mezonini sifatida qaralgan va ijobiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan [2].

Dahie-Zehi F., Ramroudi M. larning olib borgan tajriba natijalariga ko'ra kunjut seleksiyasi va urug'chilikda don hosildorligi o'simlikdagi qo'zoqchalar soni, bitta qo'zoqchadagi urug'lar soni, mahsuldorlik va 1000 dona don vazni kabi belgilar asosiy tanlav mezonini bo'lib hisoblangan va don hosildorlikni oshiriga xizmat qilgan [3].

Barcha qishloq xo'jaligi ekinlarining asosiy ko'rsatkichi bu hosildorlik hisoblanadi. Boshqa barcha ko'rsatkichlar hosildorlikni oshirishga qaratilgan seleksiya uchun xizmat qiladi. Hosildorlikni yuqori bo'lishida 1000 dona don vazni, bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni hamda qo'zoqchalardagi donlar soni, kabi ko'rsatkichlari ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutiga qarashli tajriba dalasida o'simliklar genetik resurslari ITI Milliy genbankida saqlanayotgan kunjut jahon genofondidan dunyoning 27 ta davlatlarida turli geografik xududlaridan jamlangan 100 ta namunalari ekib o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotimizda andoza nav "Toshkentskiy - 122" navi xamda 99 ta namunalar, 1 qaytariqda 5 m² maydonga ekib o'rganildi. Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, harorat va namlik o'simlik o'suv davrida, asosan don to'lishish fazasida katta ahamiyatga ega.

Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida ekib o'rganilgan 100 dan ortiq kunjut nav va namunalardan andoza nav bilan birgalikda 24 ta birlamchi manba ajratib olindi don hosildorligi ko'rsatkichlar o'rganildi. 2023-2025-yillarda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra kunjut nav va namunalarda don hosildorligi tahlil qilinganida, o'rtacha ko'rsatkich yillar kesimida 18,3 s/ga dan 28,6 s/ga ekanligi aniqlandi. Andoza "Toshkentskiy-122" navdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar borligi tahlil natijalarida aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra andoza nav "Toshkentskiy-122" navida don hosildorligi 20,5 s/ga bo'lganligi aniqlandi.

Don hosildorligi bo'yicha andoza navdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar K-7 namunasi 4,1 s/ga, K-17 namunasi 5,1 s/ga, K-53 namunasi 2,6 s/ga, Mahalliy-1 namunasi 3,8 s/ga, Mahalliy-5 namunasi 4,3 s/ga, K-462 namunasi 5,4 s/ga, K-281 namunasi 3,4 s/ga, K-202 namunasi 8,1 s/ga, K-277 namunasi 2,2 s/ga, K-662 namunasi 5,6 s/ga yani andoza nav Tashkentskiy-122 naviga nisbatan 2,2 s/ga dan 8,1 s/ga don hosildorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra don hosildorlik ko'rsatkichi andoza nav bilan bir

xil ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar K-156, K-195, K-214, K-241, soni 4 tani tashkil qilgan bo'lsa, don hosildorligi bo'yicha andoza navdan past ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar K-82, K-187, K-596, K-289 soni 4 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi.

Kunjut nav va namunalarda don hosildorligi ko'rsatkichi yuqori bo'lgan namunalar (2023-2025-yy.).

№	O'z katalog nomeri	O'ITI	Kelib chiqishi	2023-yil	2024-yil	2025-yil	O'rtacha	andoza navdan farqi -+	
								s/ga	%
1	Toshkentskiy-122 (andoza)		O'zbekiston	20,0	21,6	20,0	20,5	0,0	0,0
2	K-7		O'zbekiston	24,2	24,4	25,1	24,6	4,1	19,8
3	K-17		O'zbekiston	27,0	23,7	26,0	25,6	5,1	20,7
4	K-60		O'zbekiston	22,2	25,1	22,3	23,2	2,7	10,6
5	K-53		O'zbekiston	22,5	23,5	23,3	23,1	2,6	11,1
6	Mahalliy-1		O'zbekiston	24,2	24,4	24,2	24,3	3,8	16,4
7	Mahalliy-4		O'zbekiston	20,7	24,3	20,0	21,7	1,2	4,9
8	Mahalliy-5		O'zbekiston	26,8	23,4	24,1	24,8	4,3	19,7
9	K-82		O'zbekiston	19,0	18,7	18,3	18,7	-1,8	-7,3
10	K-275		O'zbekiston	20,7	21,0	23,3	21,7	1,2	6,4
11	K-462		O'zbekiston	26,4	26,2	25,1	25,9	5,4	25,0
12	K-156		Turkiya	19,3	21,0	20,7	20,3	-0,2	-0,6
13	K-160		Turkiya	23,3	23,9	22,3	23,2	2,7	13,3
14	K-280		Turkiya	20,0	22,6	20,7	21,1	0,6	2,6
15	K-187		Turkiya	19,9	18,9	20,5	19,7	-0,8	-3,6
16	K-281		Turkiya	23,5	23,9	24,2	23,9	3,4	17,2
17	K-195		O.Rados	21,3	17,3	21,5	20,0	-0,5	-1,9
18	K-202		O.Rados	30,1	27,8	27,9	28,6	8,1	40,5
19	K-596		Kitay	17,8	18,0	19,2	18,3	-2,2	-7,7
20	K-277		Misir	22,3	21,7	24,1	22,7	2,2	12,1
21	K-214		Suriya	20,7	21,9	19,2	20,6	0,1	0,5
22	K-241		Azarbayjon	19,3	22,6	19,2	20,3	-0,2	-0,7
23	K-37		Germaniya	21,5	21,7	19,9	21,0	0,5	2,5
24	K-662		Sudan	24,1	30,2	23,9	26,1	5,6	26,5
25	K-289		Iron	17,7	23,4	18,3	19,8	-0,7	-2,8
	Eng past ko'rsatkich			17,7	17,3	18,3	18,3	-2,2	-7,7
	O'rtacha ko'rsatkich			22,2	22,8	22,1	22,4	1,9	9,0

Eng yuqori ko'rsatkich	30,1	30,2	27,9	28,6	8,1	40,5
------------------------	------	------	------	------	-----	------

Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra 2023-yilda kunjut nav va namunalarda don hosildorlik ko'rsatkichi tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 17,7 s/ga dan 30,1 s/ga ekanligi tahlil natijalarida aniqlandi. Tajriba natijalariga ko'ra 2023-yil andoza nav Toshkentskiy-122navida don hosildorlik ko'rsatkichi 20,0 s/ga ekanligi tajriba natijalarida aniqlandi. olingan ma'lumotlarga ko'ra don hosildorligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichi ega bo'lgan namunalar soni 12 tani tashkil qilganligi aniqlandi. andoza navdan don hosildorlik ko'rsatkichi bo'yicha past ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 5 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. andoza nav bilan don hosildorlik ko'rsatkichi deyarli bir xil bo'lgan namunalar soni esa 5 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida kuzatildi.

Tajriba natijalariga ko'ra 2024-yilda kunjut nav va namunalardida don hosildorlik ko'rsatkichi tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 17,3 s/ga dan 30,2 s/ga ekanligi tajriba natijalarida aniqlandi. olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra 2024-yilda andoza nav Toshkentskiy -122 navida don hosildorlik ko'rsatkichi tahlil qilinganida hosildorlik ko'rsatkichi 21,6 s/ga ni tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. don hosildorlik ko'rsatkichi bo'yicha andoza navdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 15 tani tashkil qilganligi kuzatildi. hosildorlik ko'rsatkichi bo'yicha andoza navdan past ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 6 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. andoza nav bilan bir xil ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 3 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi.

Kunjut nav va namunalarda don hosildorlik ko'rsatkichi 2025-yilda tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 18,3 s/ga dan 27,9 s/ga ni tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. andoza nav Toshkentskiy-122navida don hosildorlik ko'rsatkichi 20,5 s/ga ekanligi tahlil natijalarida aniqlandi. andoza navdan don hosildorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan namunalar soni 13 tani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. andoza navdan don hosildorlik ko'rsatkichi past bo'lgan namunalar soni esa 6 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza nav bilan bir xil ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 5 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida kuzatildi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida ekib o'rganilgan kunjut nav va namunalarining don hosildorligi tahlil qilinganida yillar kesimida o'rtacha ko'rsatkich andoza nav Toshkentsiy-122 navida don hosildorligi 20,5 s/gani tashkil qilgan bo'lsa, andoza navdan bu ko'rsatkich bo'yich 12 ta namuna yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi aniqlandi va birlamchi manba sifatida foydalanish uchun seleksiya ko'chatzorigi tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahla N. U., Jagtap P. K., Patel H. R. Genetic Variability and Association among Yield and Yield Related Traits of Sesame (*Sesamum indicum* L.) Genotype // International Journal of Plant & Soil Science. – 2024. – T. 36. – №. 2. – C. 197-206.
2. Marashi S. H. et al. Evaluation of genetic diversity and classification of sesame (*Sesamum indicum* L.) genotypes in Mashhad condition // Iranian Journal of Field Crop Science. – 2023. – T. 54. – №. 1. – C. 197-212.
3. Dahie-Zehi F., Ramroudi M., Raissi A. Investigation of Some Morphological Traits, Yield, Yield Components, and Oil Percentage of Sesame Genotypes under Drought Stress Conditions // Journal of Crops Improvement. – 2022. – T. 24. – №. 1. – C. 41-51.